

**ERKIN VOHIDOV YARATGAN “QALAM” OBRAZINING SERQIRRA
MA’NOLARI****Usmonova Shahina Xudoynazar qizi***Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika
fakulteti 4-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotida munosib o‘ringa ega ijodkor, O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning asarlaridagi obrazlar haqida muxtasar mushohada yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *shoir, Erkin Vohidov, ijod, obraz, ijodkor.*

Kirish.

“Bor ekan ko‘ksingda otash,

Sen uchun dunyo qalam”

E . Vohidov

Taniqli o‘zbek ijodkori Erkin Vohidov 1936-yilning 28-dekabrida Farg‘ona viloyatining Oltiariq tumanida Cho‘yanboy Vohidov xonadonida tavallud topgan. O‘qituvchi bo‘lib ishlaydigan otasi Ikkinchi jahon urishida qatnashgan va qaytib kelgandan so‘ng vafot etgan. Erkin Vohidov o‘sha paytda to‘qqiz yoshda bo‘lgan. Vohidov o‘sha davr qiyinchiliklarini shunday eslaydi: “Otam frontda ekanida onam qishloq Kengashida kotiba bo‘lib ishlar, qiyinchilik bilan kun ko‘rar edik. Jo‘xori poyasini shimib tilimni qonatganim, bolalarga qo‘shilib kunjara yeganim uchun onam yuzimga shapaloq urgani va o‘zi kechgacha yig‘laganini unutmayman.”

Otasining vafotidan so‘ng, 1945-yilda yosh shoir onasi Roziyaxon opa bilan birga Toshkentga ko‘chib boradi. Onasi ham ko‘p o‘tmay olamdan o‘tgan. U to‘g‘asi qo‘lida tarbiya topgan.

Erkin Vohidov she‘rlari bahor yomg‘irlaridek qalbimizga shu qadar sof, nafis va iliq holda quyiladiki, har bir misra ko‘ngil gulimizga shabnamdek xush yarashib, ruhiyatimizni poklaydi. Shoir lirikasidagi muvozanat nuqtasi bir-birini tortib turgandek va shu bilan yetakchi obrazlardan biri butun ijod ahlining quroli bo‘lmish , qalamdir. Ha , ha oddiygina o‘sha qalam. Shoirning 1967-yilda yozilgan “Qalam ” she‘ri javobsiz savollarga javob bo‘lgandek bo‘ldi. Shoir qalamni shunday timsolga aylandirdiki, bunda tasavvuf ham, XX asrning notinch qiyofasi , hurriyat sog‘inchi , haqiqatga bo‘lgan ishonch ham barq urib turibdi.

Rost , qalam timsoli she'r ,
 Timsoli tig' , timsoli haq.
 Boshini ming kesdilar,
 Bosh egmadi also qalam.
 Misralarda qalam quyidagicha ma'nolarni izohlab kelmoqda.

1. She'r .

“Qalam ahli”, “Ulug‘qalam ”, “Qalami o‘tkir” degan tushunchalarni ko‘p eshitganmiz, biroq kamdan-kam holda asl ma’nosini idrok etamiz. Qalam shoir , yozuvchi, musavvir qo‘lida chinakam mo‘jizaga aylanib yetuk asar yaratadi. Qalam ijodkor qalbidagi kechinmalarni qog‘ozga muhrlaydi. Mana uning she'r timsoli ekanligi.

2. Tig‘

Aynan ushbu timsol sobiq tuzum davridagi asl iste’dod sohiblariga “Xalq dushmani ” degan bo‘xton bilan uyushtirilgan oshkora qatlionni eslatadi. Ularning zulmat kuchlariga qarshi ko‘targan yagona yarog‘i aynan qalam edi. Abdulla Oripovning :

“Temur tig‘i yetmagan joyni,
 Qalam bilan oldi Alisher”

Misralari orqali esa harbiy qurol, urushlarning aqlni bo‘ysindirishi , jismni bo‘ysindirishi mumkinligi biroq qalbni ishg‘ol etolmasligini ko‘rsatadi.

3. Haq

Bu o‘rinda qalamning haq timsoli qilib olinishida uning arab alifbosining birinchi harfi bo‘lmish alifga monandligi , tikligi , ravonligi asos qilib olingan, ya‘niki haq yagona uning yo‘li bir umrlik mashaqqatlardan iborat bo‘lsada, illatlardan holi komillik , haqiqat yo‘li ekanligi oydinlashadi. Shu o‘rinda

Boshini ming kesdilar,
 Bosh egmadi also qalam.

Misralar orqali asl iste’dod sohibining qalami hech qachon mo‘rt bo‘lmasligini, uning bir umrlik sobit va o‘tkir yarog‘ekanligini hamda haqiqat yo‘lida ming yo‘nsada, egsada, buksada biroq sinmasligini his etamiz. Shoir qalam obrazi orqali qalam kuchi, ma’suliyati va yukini ham e’tirof etadi. Shoir Zulfiyaning Hamid Olimjon vafotidan so‘ng , qo‘limga 2 ta qalam oldim, endi 2 kishi uchun yozishim kerak edi” degan xotiralari orqali ham biz qalamning yukini, kuchini his etamiz. Uning kamtarona mehnatini esa Abdulla Oripovning quyidagi misralari orqali his etamiz.

Erkalangiz qalamni olib,
 O‘pib qo‘ying uni muloyim.
 Sho‘rlik o‘zi yalang‘och qolib,
 Kiyintirar egasin doim...

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vohidov .E. “Devon” G‘afur G‘ulom nashriyot – matbaa ijodiy uyi T. 2015 40-46-betlar
2. Vohidov. E.”Orzuli dunyo” “Sharq ” nashriyoy-matbaa aksiyadorlik kompaniyasiT:2010 35-bet
3. www.ziyouz.com sayti